

KORRUPSIYA JINOYATI NATIJASIDA KELIB CHIQUVCHI SALBIY OQIBATLAR**Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish Instituti

Yuridik fanlar kafedrası katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14251796>

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiya jinoyati natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, elektron terrorizm, elektron jihod, ommaviy axborotlashuv.

NEGATIVE CONSEQUENCES RESULTING FROM THE CRIME OF CORRUPTION

Abstract. This article describes the negative consequences of the crime of corruption.

Key words: Corruption, electronic terrorism, electronic jihad, mass communication.

НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ КОРРУПЦИОННОГО ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье описаны негативные последствия коррупционного преступления.

Ключевые слова: Коррупция, электронный терроризм, электронный джихад, массовые коммуникации.

Hozirgi globallashuv, mintaq va davlatlararo integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya chegara bilmas muammoga aylandi.

Aytish lozimki, korrupsiya keltirib chiqarayotgan oqibatlar jamiyatlarni ich-ichidan yemirib, demokratik va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiy rivojlanishni izdan chiqaradi, jamiyat va davlat uchun o'ta xavfli bo'lgan uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng yoyilishiga sharoit yaratib beradi.

Bugun katta-yu kichik, boy va kambag'al, qudratli va kuchsiz bironta davlatni korrupsiyadan holi hudud, deb ayto olmaymiz. BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti bu ofat tufayli yiliga 1.5-2.6 trln. dollargacha zarar ko'rmoqda.

Jamiyatni har tomonlama rivojlantirish har bir mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday davlatlar borki, ularning har birida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar va unga qarshi kurashish to'g'risida normativ hujjatlar qabul qilingan.

Haqiqatan, korrupsiya muammosi bugungi kunda dunyo miqyosida o'z yechimini talab etayotgan birinchi masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois ham, jahon hamjamiyati bu illatga qarshi keskin kurashmoqda.

Bu yo'nalishda bir qator xalqaro hujjatlar ham qabul qilingan bo'lib, BMT homiyligida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish rezolyusiyasi (1995 y.), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996 y.), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashish deklaratsiyasi (1997 y.), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (2000 y.), Korrupsiyaga qarshi konvensiya (2003 y.) va boshqalar shular jumlasidandir.

Tan olib aytish lozimki, mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish izchillik bilan olib borilmoqda. Bu borada so'z yuritar ekanmiz avvalo, mamlakatimiz 2008 yilda Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga qo'shilganligini, Oliy Majlis tomonidan 2011 yilda Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilinganligini ko'rsatib o'tish lozim.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturlarining qabul qilinganligi yurtimizda korrupsiya bilan bog'liq xuquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga Qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni bu boradagi izchil sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan. Afsuski, yurtimizda bu borada yetarlicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga qaramasdan jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda.

Davlat xavfsizlik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, korrupsiya jinoyati davlat xavfsizlikni tashkil etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, informatsion va boshqa sohalarda namoyon bo'lib, ushbu sohalarga salbiy ta'sir etmoqda.

Hozirgi amaliyot, shu jumladan ba'zi yangi mustaqil davlatlardagi voqealik korrupsiyaning davlat xavfsizlikka soladigan tahdidini yaqqol tasavvur etish imkonini beradi.

Siyosiy jihatdan olganda korrupsiya amalga oshirilayotgan islohatlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir.

Shu bilan birga korrupsiya domiga ilingan siyosatchilar yoki amaldorlar shaxsiy boylik o'rttirish maqsadlarini va urug' — aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi.

Korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Korrupsiya jamiyatning ma'naviy — ahloqiy asoslarini yemiradi, jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi.

Korrupsiya natijasida hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf — xatarlardan biridir. Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan til biriktirishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o'zini obro'sizlantiradi.

Iqtisodiy sohada esa korrupsiya natijasida tadbirkorlar erkin faoliyati uchun sun'iy to'siqlar yuzaga keladi. Korrupsiyaning kuchayishi mamlakatga kelayotgan chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini to'xtatib qo'yadi. Natijada mamlakat g'oyat muhim kapital mablag'lar manbaidan, texnologiyalar va tajribalardan mahrum bo'ladi. Korrupsiya bozor munosabatlarida tabiiy raqobatning shakllanishiga asosiy to'siq bo'ladi.

Umuman korrupsiya mamlakatga va jamiyatga tiklanishi mushkul bo'lgan juda katta zarar keltiradi. Bozor iqtisodiyotining samaradorligi birdan tushib ketadi, mavjud demokratik institutlar buzilib ketadi. Aholi o'rtasida iqtisodiy va siyosiy tengsizlik, qashshoqlik kuchayadi hamda ijtimoiy tanglik o'sadi. Mamlakatning yaxlitligi va uning konstitutsion tuzumining saqlanishiga tahdid ostida qoladi. Shunday qilib korrupsiya mamlakat milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi omil darajasiga aylanadi.

Demak, korrupsiyaning shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdidi kuchli ekanligini anglagan holda unga qarshi kurash va uning oqibatlarini kamaytirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali yo'li bu korrupsiyani keltirib chiqaruvchi va uni rivojlanishi uchun imkoniyat yaratuvchi asosiy omillarini bartaraf qilishdir.

Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavfli.

Shu boisdan ham davlat rahbari Shavkat Mirziyoev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'ldi. Ushbu qonun me'yorlarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2023-yil 27-noyabrda farmoni

bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qabul qilindi. Dastur doirasida bir qator qonun loyihalari ishlab chiqildi, mavjudlari inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Umuman olganda, so‘nggi yillarda qilingan ishlar tahlili aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rilganini ko‘rsatib turibdi.

Islahotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqqligini, jamoat va parlament nazoratini ta‘minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Korrupsiya natijasida jamiyatning rivoji uchun amalga oshirilishi zarur bo‘lgan maqsadlar uchun mo‘ljallangan asosiy kuch va mablag‘lar biror shaxs yoki guruh manfaati uchun sarflanishi budget kamomadining kuchayishiga va davlat hokimiyatining yuzaga kelayotgan turli ob‘ektiv ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish imkoniyatini susayishiga olib keladi, aholi o‘rtasida kuchli moddiy tabaqalanishning kuchayishi muqarrar hodisaga aylanadi, ijtimoiy keskinlik kuchayadi. Bularning barchasi mamlakatning siyosiy barqarorlagiga tahdid soladi.

Jamiyat uchun xavfli hisoblangan korrupsiya mamlakatda xufyona iqtisodiyotni kengayishiga buning natijasida esa davlat budgetiga tushadigan soliqlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Bu esa davlat iqtisodiyoti uchun katta zarardir.

Korrupsiyaning eng jiddiy siyosiy oqibatlari bu davlat siyosatining umummilliy rivojlanishni ta‘minlashga mo‘ljallangan maqsadlari tor doiradagi ma‘lum guruh manfaatlari uchun xizmat qiladigan maqsadlar bilan almashishi, hukumatga bo‘lgan ijtimoiy ishonch kamayishi, halqaro miqyosda mamlakatning obro‘si tushishi va uning siyosiy, iqtisodiy yakkalanib qolish xavfining kuchayishi, fuqarolarning demokratik qadriyatlardan umidini uzilishi hamda asosiy demokratik institutlarning bo‘linib ketish xavfining kuchayishidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2021-yilning 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Korrupsiya jamiyatimiz rivojiga g‘ov bo‘layotgan eng katta illat ekanligini bayon etib, quyidagi so‘zlarni jumladan, “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak” – deb ta‘kidladilar.”

Korrupsiyani davriy ravishda cheklash va unga qarshi kurashish orqali davlat uchun juda katta miqdorda iqtisodiy foyda keltirish va iqtisodiyotni sog'lomlashtirish mumkin. Bu o'z navbatida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi siyosat davlat siyosatining doimiy bir qismi bo'lishi kerakligi mutaxassislar tomonidan ta'kidlanadi. Bu esa korrupsiyani cheklovchi, doimiy tizim darajasiga yetib boruvchi korrupsiyaga qarshi dasturni tez orada ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarurligini anglatadi. Bunday dasturni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish korrupsiya tabiatini to'g'ri tushunishga va unga qarshi kurashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni taxlil qilishga hamda aniq tamoyillarga, mavjud shart —sharoit va cheklashlarni to'g'ri taxlil qilishga asoslanishi kerak.

Har bir fuqaro mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ravnaqi uchun asosiy to'siqlardan biri bo'layotgan korrupsiya kabi salbiy hodisaning yuzaga kelish sabablari va uning oqibatlarini to'g'ri anglagan holda yuqorida keltirib o'tilgan chora va tadbirlarni amalga oshirishga ma'muriy rahbariyatning har bir xodimi hamda har bir oddiy fuqaro o'z yordamini ayamagan holda bir yoqadan bosh chiqarib kurashmog'i zarurdir. Shundagina biz korrupsiyaning rivojlanib ketishi va uning oqibatlarini oldini olishga, mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarni samarali amalga oshirishga erishishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Ushbu maqola shxsiy fikrlar asosida yozilgan. Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li 2024.